

## MUSTAQILLIK YILLARIDA MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI TARIX FAKULTETINING RIVOJLANISHI

**Ergashev Husan Yusup o‘g‘li**

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti Tarix fakulteti I bosqich  
magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqola mustaqillik yillarida respublikada ijtimoiy-gumanitar sohadagi yetakchi oliy o‘quv yurti hisoblangan O‘z MU Tarix fakultetining mustaqillik yillaridagi faoliyatiga hamda Tarix fanining mamlakat ijtimoiy hayotida tutgan o‘rni va rolini oshirishdagi ilmiy yangiliklarni yoritib berishga bag‘ishlanadi.

**Annotation:** This article is devoted to the activity of the Faculty of history of the Republic of Uzbekistan, which was considered the leading higher educational institution in the sociohumanitarian sphere in the years of independence, as well as scientific innovations in increasing the role and role of historical science in the socioeconomic life of the country.

**Kalit so‘zlar:** Arxeologiya, Manbashunoslik, Arxivshunoslik va Muzeyshunoslik, Etnografiya, ijtimoiy-gumanitar, tarix-filologiya.

Mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekistonning mamlakat miqyosida ta’lim sohasini isloh etishda, uning nazariy va kontseptual asoslarini yangicha g‘oyalar, kontseptsiya va tamoyillar asosida amalga oshirishning strategik dasturlarini ishlab chiqishga alohida e’tiborni qaratdi. Bu mamlakatda davlatning bosh islohotchiligiga tayangan ustuvor sohalardan biri sifatida baholanganligi bilan xarakterlidir<sup>12</sup>. O‘zbekistonda ta’limni rivojlantirishga e’tibor qaratilganligining sababi, yosh davlatni

<sup>12</sup> Давлетова М.Ш. ЎЗБЕКИСТОН ДАВЛАТИНИНГ ОЛИЙ ТАЪЛИМ СОҲАСИДАГИ СИЁСАТИ ВА УНИНГ РИВОЖЛАНИШИ: Сиёсий фанлар номзоди... дис.Т, 2007. 15 б

turli mafkura va ta'sirlardan omon saqlab qolish maqsadida ta'limni xususan, ijtimoiy-gumanitar sohaning rivojiga alohida urg'u berildi. Bu siyosat zamirida, xalqning birligini saqlash kelajakni bir yoqadan bosh chiqargan holda vazifalarni belgilash kabi ulug'vor maqsad mujassamlashgan edi, aynan bu soha vakillari xalqni turli mafkuralarga va yot unsurlarga qarshi immunitetni shakllantirishda katta ahamiyatga ega ekanligi davlat rahbari tomonidan ta'kidlab o'tildi. Shu maqsadda respublikada ilmiy saviyasi va tajribasi bilan yetakchi bo'lgan davlat ta'lim muassasalariga qator talablar qo'yildi, jumladan Toshkent Davlat Universiteti<sup>13</sup> (hozirgi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti) bu sohada yetakchi ta'lim dargohi hisoblanadi, uning mavjud fakultetlariga o'z sohasidan kelib chiqib vaziyatga mos tarzda o'z sohasini isloh qilish zarurligi belgilandi. Xususan, ijtimoiy-gumanitar sohaning bu vaqtdagi o'rni va ahamiyati zarurligi anglandi. Tarix fakultetining ham bu davrdagi faoliyati orqali bu ko'rishimiz mumkin. Bu paytda fakultetda ya'ni 1991-1992 o'quv yilida 5 ta kafedra faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ular quyidagilar edi:

- 1) O'zbekiston xalqlari tarixi g'
- 2) Yangi va eng yangi tarix
- 3) Etnografiya, Qadimgi dunyo va o'rta asrlar
- 4) Arxeologiya
- 5) Madaniyat tarixi va Nazariyasi nomli kafedralar faoliyat ko'rsatgan edi<sup>14</sup>.

Agar e'tibor qaratadigan bo'lsak, yuqoridagi kafedralar mustaqillikning dastlabki davridagi xalqning o'z milliy g'oyasini yaratish uchun katta xizmat ko'rsatishga qaratilgan, bunda asosiy e'tibor talaba yoshlarni O'zbekiston va Jahon tarixini o'rganish orqali yosh davlatning kelajak yo'lini belgilashdagi rolini oshirishga qaratildi. Bu sohada uzoq yillardan beri fakultetda faoliyat ko'rsatib kelgan tajribali ustozlarning o'rni katta ahamiyatga egadir. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 1991-yil 23-yanvardagi buyrug'i asosida 1991-1992-o'quv yili uchun gumanitar fanlar yo'nalishida Toshkent Davlat Universiteti Tarix

<sup>13</sup> МЎЎТАБАБ ЗИЁ МАСКАНИ (1918-2008) . : Т, 2008.150 б.

<sup>14</sup>ТОШКЕНТ ШАҲАР МАРКАЗИЙ ДАВЛАТ АРХИВИ. Фонд-38, донмо сақланадиган йиғма жилдлар N2, опис №1, д-1335.

fakultetida fakultetlararo Madaniyat tarixi va nazariyasi nomli kafedra tashkil etildi<sup>15</sup>. Bu kafedrani ochishdan maqsad, qadim zamonlardan buyon insoniyat madaniyati, jumladan Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati taraqqiyotini xolis va chuqur o‘rganish edi. Mustaqil davlatning o‘z tarixiy ildizlari qachongacha borib taqalishi borasida yakdil konsepsiyani qabul qilish, aniq va xolis belgilash, bu davrning juda muhim vazifasi hisoblanardi, chunki bu masala har bir davlatning kelajakdagi ustuvor yo‘nalishlarini belgilashda muhim omil sanaladi. Arxeologiya kafedrasini olimlari tomonidan davlatchilik masalasiga alohida e‘tibor qaratilib, bu boradagi o‘z ilmiy izlanishlari bilan ushbu masalaga oydinlik kiritishda peshqadam bo‘ldilar. Har bir sohada bo‘lgani kabi talaba-yoshlar o‘rganayotgan jahon tarixining ahamiyati bu davr uchun muhim edi, zeroki yuqorida qayd etilganidek, davlatning har bir soha va tarmog‘i sobiq ittifoq manfaatiga mos tarzda yuritilgani sababli yangicha tizimdagi dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladigan ta‘lim dasturini ishlab chiqish muhim vazifa hisoblanardi, bu vazifa Yangi va eng tarix kafedrasini tomonidan milliy an‘analarni saqlagan holda, yosh davlatning istiqboliga xizmat qila oladigan darajadagi rejasi ishlab chiqildi va o‘quv dasturiga kiritildi. 1991-1992-o‘quv yilida Tarix fakultetidagi mavjud kafedralar soni 5 tani tashkil etgan bo‘lsa keyingi o‘quv yiliga kelib esa kafedralar soni deyarli bir barobarga ko‘payadi, ya‘ni 9 ta kafedra to‘liq tarkibda o‘z faoliyatini davom ettiradi. Yangi tashkil etilgan kafedralar sirasiga Yevroosiyo xalqlari tarixi, Tarixni o‘qitish uslubi, Manbashunoslik, Arxivshunoslik va Muzeyshunoslik va O‘zbekiston davlati va huquqi asoslari nomli kafedralar tashkil etildi<sup>16</sup>.

Toshkent Davlat Universiteti (hozirgi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti) ning Tarix fakultetining mustaqillikning ilk yillaridayoq o‘z bilim va tajribalarini millatning ertangi kuni va porloq kelajagini ta‘minlash maqsadida astoydil mehnat qildilar, bu o‘rinda yuksak bilim va salohiyatli o‘qituvchilardan G.A.Hidoyatov, I.M.Jabborov, O.O.Toshmuhammedov, A.S.Sagdullaev, E.V.Rtvladze, T.O‘.Salimov, E.N.Gulmetov, S.B.Lunina, R.X.Murtazaeva,

<sup>15</sup> ТОШКЕНТ ШАҲАР МАРКАЗИЙ ДАВЛАТ АРХИВИ. Фонд-38, доимо сақланадиган йиғма жилдлар N2, опис № 1, д-769.

<sup>16</sup> ТОШКЕНТ ШАҲАР МАРКАЗИЙ ДАВЛАТ АРХИВИ. Фонд-38, опис №2, д-1059.

O‘.M.Mavlonov, S.F.Atabekova, K.T.Utegov, S.K.Kojevnikova, N.A.Abdurahimova, N.A.Akopyan, Z.I. Usmonova, Z.R.Eshonxo‘jayeva, G.Ya.Dresvyanskaya kabi olimlar xolis tariximizni ochib berish va fakultet faoliyatini rivojlantirishga o‘z hissalarini qo‘shdilar. Bu nomlarni yana davom ettirish mumkin, eng muhimi mustaqillikning ilk davridagi milliy tarixning qaror topishida yuqoridagi olimlarning xizmatlari katta bo‘ldi, ular yaratgan ilmiy maktab bugungi kunda o‘z samarasini bermoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1) Давлетова М.Ш. ЎЗБЕКИСТОН ДАВЛАТИНИНГ ОЛИЙ ТАЪЛИМ СОҲАСИДАГИ СИЁСАТИ ВА УНИНГ РИВОЖЛАНИШИ: Сиёсий фанлар номзоди... дис.Т, 2007.
- 2) МЎЎТАБАР ЗИЁ МАСКАНИ (1918-2008) . : Т, 2008.150 б
- 3) ТОШКЕНТ ШАҲАР МАРКАЗИЙ ДАВЛАТ АРХИВИ. Фонд-38, доимо сақланадиган йиғма жилдлар N2, опис №1, д-1335.
- 4) ТОШКЕНТ ШАҲАР МАРКАЗИЙ ДАВЛАТ АРХИВИ. Фонд-38, доимо сақланадиган йиғма жилдлар N2, опис № 1, д-769..
- 5) ТОШКЕНТ ШАҲАР МАРКАЗИЙ ДАВЛАТ АРХИВИ. Фонд-38, доимо сақланадиган йиғма жилдлар N2 опис №2, д-1059.